

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEV ABROR ABDUVASITOVICH

**SPEKTRNING OPTIK SOHASI UCHUN GENERATOR TIPIDAGI FOTO
QABUL QILGICH ISHLAB CHIQISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan–2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Yuldashev Abror Abduvasitovich

Spektrning optik sohasi uchun generator tipidagi foto qabul qilgich ishlab
chiqish 3

Юлдашев Аброр Абдуваситович

Разработка фотоприемника генераторного типа для оптической области
спектра..... 19

Yuldashev Abror Abduvasitovich

Development of a generator-type photodetector for the optical region of the
spectrum 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YULDASHEV ABROR ABDUVASITOVICH

**SPEKTRNING OPTIK SOHASI UCHUN GENERATOR TIPIDAGI FOTO
QABUL QILGICH ISHLAB CHIQISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan–2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.I.PhD/T2594 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.namnti.uz) va Ziyonet Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

[Naymanbaev Raxmonali]

Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Zaynabidinov Sirojiddin Zaynabidinovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor,

O'zR FA akademigi

Qo'ldashov Obbozjon Xokimovich

texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil 21-sentabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel./faks: (99869) 225-10-07; (99869) 225-76-75, e-mail: nci_info@edu.uz. Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-bino, 2-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№307 raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy Tel: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 9-sentabrda tarqatildi
(2024-yil 9-sentabrdagi №15 raqamli reestr bayonnomasi.)



U.I. Erkaboev

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

A.A. Abduraimov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

N.Yu. Sharibayev

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,

f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda muqobil energiya manbalari asosida ishlaydigan, energiya tejamkor elektrostatik maydon hosil qiluvchi texnika va texnologiyalarni yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda yarimo'tkazgichli materiallar asosidagi yuqori samarali energiya turlarini o'zgartirgichlar olish va ular asosida qurilmalar yaratish asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Quyosh radiatsiyasining yorug'lik va issiqlik ta'sirlaridan foydalanib optoelektron usul bilan elektrostatik maydon hosil qilish va undan xalq xo'jaligida foydalanish ekologik toza va kam xarjli texnologiyalar yaratish belgilangan. Bu borada, jumladan yarimo'tkazgichli fotoelektrik energiya o'zgartirgichlarning samaradorligini oshirish, fotoo'zgartirgich yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimining samarali yutilishini ta'minlash, fotogeneratsiyalangan zaryad tashuvchilarning sirtiy va hajmiy rekombinatsiyasini kamaytirish, yuqori samarali energetik qurilmalar uchun istiqbolli yangi fotoelektrik strukturalar olish, ularning elektrofizik xossalarini o'rganish hamda fotoelektrik energiya manbalaridan foydalanishning o'ziga xos imkoniyatlarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari tadqiqotchilari tomonidan yarimo'tkazgichli mono va polikristallardan yasalgan samaradorligi yuqori, ixcham energiya turlarini o'zgartiruvchi qurilma va asboblari yaratish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan zamonaviy mikroelektronika asosan kremniy yarimo'tkazgich materiallari asosidagi elementlar bilan chegaralangan bo'lsa, mikrofotoelektronikada ularning keng ko'lamidan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, spektral sohaning har bir qismi uchun o'ziga mos yarimo'tkazgich materialdan foydalanish, ba'zi hollarda qo'llanish sohasiga, ya'ni foto qabul qilgichga qo'yiladigan texnik talablar va ishlash sharoitlariga qarab bir nechtasidan foydalaniladi. Bu borada maqsadli tadqiqotlarni amalga oshirish, xususan, yupqa pardalar fizikasi, yupqa pardali mikroelektronika, optoelektron qurilmalar yaratish va boshqa yo'nalishlarda izlanishlar olib borish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamiz miqyosida ham optik va fotoelektrik qurilmalarning samaradorligini yanada orttirish maqsadida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar natijasida, fan va texnikaning ko'pgina sohalarida inqilobiy o'zgarishlar yasay oladigan mikroelektronika, optoelektronika va geliotexnika kabi istiqbolli sohalar yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu o'rinda, 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish masalalari, ishlab chiqarishga energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish..."¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, yarimo'tkazgichlar asosida yuqori samaradorlikka ega bo'lgan energiya

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "«O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

o'zgartirgichlar olish va ular asosida yangi tipdagi optoelektron qurilmalar yaratish, ularni qo'llanish sohalarini kengaytirish masalalarini hal qilishga qaratilgan ilmiy amaliy tadqiqotlarni o'tkazish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-220-son "Energiya tejevchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2021 yil 9 apreldagi PQ-5063-son "O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalar rivojlanishining III. "Energetika, energiya va resurs tejamkorligi, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish tani" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirda optoelektron asboblari va tizimlardan xalq xo'jaligining turli sohalarida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda foydalanilmoqda. Optoelektron asboblari va tizimlarni loyihalashda muhim muammolar, ularning asosiy qismlaridan biri bo'lgan optik nurlanishlarni qabul qilgichlarni tanlash hisoblanadi. Yarim o'tkazgichlar va yarimo'tkazgichli asboblari fizikasi, jumladan bir jinsli bo'lmagan strukturalardagi fizikaviy jarayonlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish dastlabki p-n o'tishlar asosidagi diod yaratilishidan boshlab jadallashdi. Bunday strukturalar sirasiga yarimo'tkazgich polikristall materiallar ham taalluqli bo'lib, ularda kechadigan fizikaviy jarayonlarni o'rganish, ular asosida turli mikro- opto- termoelektron elementlar va asboblari ishlab chiqish ustida dunyoning yetakchi olimlaridan R.Rozenxaymann, K.Xargrivzom, B.M.Goltsman, V.I.Stafeyev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Polikristall mikrostrukturasidagi kristalchalararo chegara sohasidagi sirt potentsiali bilan bog'liq holatlar V.M.Jonson, W.K.Schubert, V.Iglessiyas tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistondan ushbu sohada bir qator olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Taniqli akademiklar R.A.Mo'minov, A.T.Mamadalimov, S.Z.Zaynabidinovlarning ilmiy maktablarida yarimo'tkazgichlar fizikasi va texnikasining zamonaviy istiqbolli yo'nalishlari tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, yarimo'tkazgichli yupqa pardalar olish texnologiyasini takomillashtirish, ularda kechadigan fotoelektrik, termoelektrik, tenzoelektrik va boshqa hodisalarni tadqiq qilish, qo'llanish sohalarini o'rganish va yuqori samaradorlikka ega bo'lgan elementlar olish hamda qurilmalar yaratish sohasida professorlar X.S.Daliyev,

Sh.B.Utamuradova, N.F.Zikrillayev, R.Ya.Rasulov, B.Raximov, O.Qo‘ldashov, R.Aliyev, A.M.Qosimoxunova, S.M.Otajonov, K.E.Onarqulovlar yuqori natijalarni qayd etishmoqda. Yarimo‘tkazgich materiallardan mikro- optoelektron qurilmalar yaratishda foydalanish mumkinligining ilmiy, texnikaviy va texnologik asoslari ishlab chiqilmoqda.

Biroq xalkogenid yarimo‘tkazgich materiallardan CdTe, CdS yupqa pardalarini olish, xalkogenid yarimo‘tkazgich yupqa pardalarida volt-amper xarakteristikasini, fototermoelektrik hodisalarni tadqiq etish, xalkogenid yarimo‘tkazgich yupqa pardalarida fotomagnitoelektrik, yorug‘lik va qutblangan yorug‘lik intensivligining modulyatsiyasi bilan bog‘liq effektlarni ifodalash, spektrning optik sohasi uchun samaradorligi yuqori bo‘lgan optoelektron qurilmalar yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi Dissertatsiya ishi Farg‘ona davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITD-12-56 «Yarim o‘tkazgichlardan termoelektrik materiallar tayyorlash» (2012-2014 yillar) ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: nurlanishning optik sohasida sezgir yarimo‘tkazgich yupqa pardalarda kuzatiladigan fotoelektrik hodisalar va ular asosida avtonom rejimda ishlovchi, muqobil energiya manba qurilmalarni yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yorug‘lik spektrining optik nurlanish sohasida fotovoltaik sezgirligi yuqori bo‘lgan yarimo‘tkazgich yupqa pardalar olish texnikasi va texnologiyasini ishlab chiqish;

bir jinsli bo‘lmagan xalkogenid (CdSe, CdS, CdTe) yarimo‘tkazgich yupqa pardalaridagi fotoelektrik, fotomagnitoelektrik hodisalarni o‘rganish negizida o‘ta ko‘p p-n o‘tishlik mavjudligini aniqlash;

bir jinsli bo‘lmagan xalkogenid yupqa pardalaridan foydalanib, generator tipidagi foto qabul qilgichlar yaratishning ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqish;

spektrning optik sohasi uchun yaratilgan foto qabul qilgich elementlar vositasida ochiq kanali to‘g‘ri bog‘lanishda ishlay oladigan “elementar optron”ni ishlab chiqish va tadqiq etish;

elementar optrondan foydalanib muqobil energiya manbasi hisobiga mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan optoelektron, galvanik ajratilgan elementlarga ega unipolyar optoelektron transformatorni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida nurlanishning optik sohasida sezgir CdSe, CdS yarimo‘tkazgich materiallari asosidagi bir jinsli bo‘lmagan yupqa pardalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti yorug‘lik spektrining optik sohasida sezgir bo‘lgan yarimo‘tkazgich yupqa bir jinsli bo‘lmagan yupqa pardalar olish texnikasi va texnologiyasining fizik asoslarini o‘rnatish, elektrofizik, fotoelektrik, fotomagnit xususiyatlarini o‘rganish, ular asosida generator tipidagi foto qabul qilgichlar texnikasining fizik asoslarini o‘rganish.

Tadqiqotning usullari. Vakuumda bug‘lantirish orqali CdSe, CdS, CdTe asosidagi yarimo‘tkazgichli fotosezgir yupqa pardalar olish usuli, volt-amper

xarakteristikalarini aniqlashda, spektral xarakteristikalarini o'lchash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor, anomal fotokuchlanish vakuumda yarimotkazgich materialni (CdSe, CdS, CdTe) 250°C ga qizdirilganda, molekulyar oqim yo'nalishi burchak ostida joylashgan dielektrik asosga termik bug'latish yo'li bilan olinganda, molekulyar oqim yo'nalishida stolbsimon strukturali polikristal yupqa pardalarda hosil bo'lishi aniqlangan;

bir jinsli bo'lmagan yarimo'tkazgichlarda (CdSe, CdS, CdTe) yupqa pardalarga, kuchsiz yorug'lik kuchlanishi 10-20 kV fotokuchlanish bera oladigan generator yordamida, n-tipidagi yarimo'tkazgichlar (foto qabul qilgichlar) ishlab chiqilgan;

ilk bor, quyosh yorug'ligining issiqlik, yorug'lik va magnit ta'sirlaridan foydalanib 1000V dan ortiq kuchlanish hosil qilish imkoniyatiga ega geliooptron (foto qabul qilgich) qurilmasi ishlab chiqilgan;

ilk bor, yorug'lik nuri ta'sirida yuqori elektr maydoni hosil qiladigan (AFK – elementi) yarimo'tkazgich yupqa plyonkalari asosida ishlaydigan, ikkita elektron konturi va bitta foton bog'lanishli optron zanjiridan iborat opto tok kuchaytirgich ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanib elektr maydoni va optik signallar hosil qiluvchi yarimo'tkazgich polikristall yupqa pardali elementlar olish texnologiyasi takomillashtirilgan;

kichik amplitudali elektr va optik signallarni yordamida katta amplitudali elektr potentsialli elektrostatik va elektromagnit maydonlar hosil qilish imkoniyatlari ko'rsatilgan;

quyosh radiatsiyasidan foydalanib, maxsus tashqi elektr manbasi ishlatilmaydigan elektron-foton bog'lanishli optoelektron qurilmalar yaratish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib borilgan texnikaviy va eksperimental tadqiqotlarning asoslangan va ishonchliligi uslubiy jihatdan sinalgan usullardan va tajribalar davomida xalqaro tan olingan metodlardan foydalanilganligi, eksperimental natijalarning nazariy tushunchalarga mosligi hamda adabiyotlarda mavjud natijalarga mos tushishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati yupqa pardali foto qabul qilgichlar tarkib va tuzilishida klaster tipidagi segregatsiya xususiyatini namoyon qiladigan, bir jinsli bo'lmagan qatlamlardan iborat ekanligi aniqlangani va shu asosda anomal fotokuchlanish tabiati ochib berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanib elektr va optik signallar hosil qiluvchi ixcham, samaradorligi yuqori kichik amplitudali elektr va optik signallarni katta amplitudali elektr potentsialiga aylantirish imkoniyatini beradigan optoelektron qurilmalar yasash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Yarimo'tkazgichli polikristall yupqa pardalaridan tayyorlangan qayta tiklanuvch energiya manbalari asosida ishlovchi optoelektron qurilmalar yaratish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

polikristall yarimo‘tkazgichli xalkogenid yupqa pardalarda anomal fotoelektrik va anomal fotomagnitoelektrik hodisalarni o‘rganish natijasida polikristallarning super ko‘p qatlamliligi, anomal fotoelektrik va anomal fotomagnitoelektrik hodisalar faqat bo‘ylama effekt bo‘lib, strukturaning qarshiligi o‘ta katta bo‘lgan ($>10^9$ Om) namunalarda kuzatilishi bo‘yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalaridan Namangan muhandistlik – qurilish institutining “Fizika” kafedrasida 2017-2020 yillarga mo‘ljallangan OT-F2-71 “O‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydondagi deformatsiyalangan p-n o‘tish volt-amper xarakteristikasiga yorug‘likning ta‘sirini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental davlat loyihasida foydalanilgan. (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022 yil 21 fevraldagi 3/19-21/02-40 - son ma‘lumotnomasi); Natijada yarimo‘tkazgichli zarrachalar negizida fotoelektrik materiallar olish texnologiyasi va materiallarning termoelektrik xossalari optimallashtirilgan;

gibrid gelioptron yordamida yuqori kuchlanishli elektr maydoni quyosh radiatsiyasi vositasida olinadi. Bu elektr maydonini molekulyar oqimlarni saralash tizimlarida foydalaniladi. Jumladan, rudalarni dastlabki tozalash tizimida, kvant guruhi asboblarni saralash blokida, elektr maydoni manbasi sifatida va meditsina qurilmalari avtonom elektr maydon manbasi vazifasini bajarishi bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar “FOTON” aksiyadorlik jamiyati amaliyotiga joriy etilgan (“O‘zEITexsanoat” AJ uyushmasining 2022-yil 15 fevraldagi 04-3/288 son ma‘lumotnomasi). Natijada tajribaviy na‘munalardagi elektrotexnik asboblarni elektrofizik parametrlarini ~10% yaxshilash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta Respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha tadqiqot natijalari jami 22 ta ilmiy ishda, ulardan 9 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shu jumladan 5 ta maqola xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 39 ta rasm, 1 ta jadvalni o‘z ichiga olgan holda, 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati tahlil qilingan va asoslab berilgan, himoyaga olib chiqilayotgan holatlar keltirilib, ishning qisqacha mazmuni ochib berilgan.

Dissertatsiyaning “**Foto qabul qilgichlarning asosiy xususiyatlari va xarakteristikalari**” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusiga oid adabiyotlar sharhi keltirilgan. Jumladan, optoelektronika sohasi uchun foto qabul qilgichlar (FQQ) orasida generator rusumidagi FQQ larning istiqboli yuqori ekanligi, chunki bunday FQQ elektron zanjiri uchun maxsus elektr manbasi zarur bo‘lmasligi asoslab berilgan. Shu bilan birga yarimo‘tkazgichli fotoelektrik qurilmalarni yaratishda

tabiiy manbalardan foydalanish istiqboli va qoʻllanish usullari va ularni spektral mosligini taʼminlash, temperatura oʻzgarishining taʼsiri tahlil qilingan. Anomal fotokuchlanish hosil qiladigan yarimoʻtkazgich yupqa pardalar olishning texnologik xosliklari bayon qilingan. Aniqlangan ilmiy-amaliy muammolar asosida dissertatsiya tadqiqotining maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “**Anomal foto kuchlanishli foto qabul qilgich olish texnikasi va texnologiyasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida anomal foto kuchlanish namoyon qilish xususiyatiga ega boʻlgan yupqa pardalar olish texnikasi, texnologik jarayonlarning xosliklari (AFK kattaligiga vakuum darajasi, taglik turi va temperaturasi, oʻtqazish burchagi, oʻtqazish tezligi va boshqalarning taʼsiri), elektrofizik va optoelektrik parametrlarini oʻlchash qurilmalari va oʻlchash natijalari bayon qilingan.

AFK–qatlamlar asosan vakuumda yarimoʻtkazgich materialni dielektrik asosga termik bugʻlatish yoʻli bilan olinadi. Bunda yupqa pardalar molekulyar dasta oqimi yoʻnalishida oʻsadi va stolbsimon strukturaga ega boʻladi. Olingan qatlamlar tayyorlanishiga mos holda amorf, polikristall tuzilishlarga ega boʻlishi mumkin. Har qanday yupqa yarimoʻtkazgich qatlamlar olish kabi AFK-qatlamlar olishda ham aniq optimal rejim topish zarur. Buning uchun tajriba yoʻli bilan har bir material uchun bugʻlatish tezligi, taglik temperaturasi, ishchi hajmdagi bosim, bugʻlanayotgan materialning molekulyar oqimining taglikka tushish burchagi kabi parametrlar tanlanishi kerak. Materialni bugʻlantirib taglikka oʻtqazish alohida kamerada amalga oshiriladi. Bunday kamerada yupqa qatlam hosil qilish toʻgʻridan-toʻgʻri bugʻlatish, diskret bugʻlatish (portlash bilan bugʻlatish), bir necha manbadan dispers bugʻlatish bilan amalga oshirilishi mumkin.



1-rasm. Yupqa pardalar olish texnikasi.

1-rasmda taglikka yarimo'tkazgich materialni o'tqazish kamerasi (a), qatlamning umumiy ko'rinishi (b) va turli materiallarning mayda kukunlarini ketma-ket diskret bug'latish usuli (d) bilan yupqa qatlamlar tayyorlash qurilmasi ko'rsatilgan.


Anizotrop bug'latish yo'li bilan olingan yupqa pardalarda bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishda, qo'shni sohalar orasidagi keskin bir jinsli emasliklar keltirib chiqargan potentsial to'siqlar, zaryad tashuvchilar almashinuvini qiyinlashtiradi. Kristallitlarning bo'ylama zanjirining shakllanishida, ketma-ket qatordagi kristallitlararo sohalar ko'payadi va pardaning bo'ylama yo'nalishidagi qarshiligini keskin orttiradi. Ko'ndalang yo'nalishdagi zanjirdagi bir jinsli emasliklarni, xalkogenid yarimo'tkazgich moddasidagi har xil uchuvchanlikka ega bo'lgan atomlar (molekulalar) hosil qiladi. Biroq ko'ndalang bir jinsli emasliklar zanjiridagi sohalar geteroo'tishlar tabiatida bo'lib, ularning soni sanoqli bo'ladi. Shu sababli bu yo'nalishning qarshiligi nisbatan (bo'ylama qarshilik yo'nalishi bilan qiyoslanganda) katta emas ($R_b \gg R_k$).

Katta uchish tezliklarida, kristallitlar zanjirlaridagi alohida elementar kristallitlar o'lchami kichiklashadi. Uchish tezligi va taglik haroratining aniq bir qiymatlari uchun kristallitlar o'lchami, parda qalinligining o'rtacha qiymatlari bilan bog'liq. Taglikka qiyalatib bug'latish yo'li bilan olingan qatlamda, sirtidan har xil chuqurlikda joylashgan p-n va n-p o'tishlar hosil bo'ladi. Bu o'tishlarning asimmetrik yoritilganligi tufayli p-n va n-p o'tishlardagi elementar ($U = kT/q$) fotokuchlanishlar bir-birini kompensatsiyalamaydi. Shu sababli anomal yuqori fotokuchlanish (~ 10000 V/sm) hosil bo'ladi.


CdTe va Sb_2Se_3 lardan tayyorlangan AFK – qatlamlar bir necha ming mikroskopik p-n o'tishlardan tashkil topgan (qatlamning 1 sm uzunligiga 10^5 p-n o'tish mos keladi). Shu sababli bu qatlamlardagi fotomagnet kuchlanish ham anomal yuqori qiymat berishi mumkin.

AFK-qatlamlarda hodisa tabiati fotodiffuzion xarakterda bo'lib, buni $U_{AFK}(\varphi)$ bog'lanish grafigidagi ishoraning o'zgarishidan bilib olish mumkin. AFK–qatlamning p-n va n-p o'tishlardan va fotoo'tkazuvchan hajmdan iborat fizik modelini ekvivalent sxema (2-rasm) bilan almashtirilsa, AFK–qatlamlarning VAX analitik ifodasini topishga imkon tug'iladi. Bu ekvivalent sxemani tuzishda Prins–Kummerovalarning fotodiodlar umumlashgan modeli asos qilib olindi. Bunday ekvivalent sxema uchun quyidagi tenglamalar sistemasini yozish mumkin:

$$\left. \begin{aligned} U &= (I_1 R_1 + U_1) - (I_2 R_2 + U_2), \\ U_{1,2} &= N \frac{kT}{2q} \ln \left(\frac{I_{per.1,2}}{I_{S.1,2}} + 1 \right), \\ I_1 &= I + I_{F_1} - I_{sh}, \quad I_{F_1} = \alpha_1 B, \quad I_{sh} = \frac{U}{R_{sh}}, \\ I_2 &= I_{F_2} + I_{sh} + \alpha I_1 - I, \quad I_{F_2} = \alpha_2 B \end{aligned} \right\} \quad (1)$$



2 – rasm. AFK qatlamlarining ekvivalent sxemasi



3-rasm. CdTe AFK-qatlamlardagi U_{AFK} , $I_{q,t}$ va R larning temperaturaviy bog‘lanishlari.

Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki, AFK-qatlam fizik modelini taqdim etib, uning uchun analitik ifoda topishda, tanlangan muqobil elektr sxemasida AFK–effektning o‘ziga xos tomonlari, eksperimental va nazariy tadqiqotlardan olingan juda ko‘p sondagi natijalar hisobga olingan. AFK–effektni juda ko‘p yarimo‘tkazgich moddalarning yupqa qatlamlarida o‘rganish natijasida shu narsa ayon bo‘ldiki, yupqa fotosezgir yarimo‘tkazgich qatlamlar hajmining ko‘p qismini fotovoltaik jihatdan aktiv bo‘lmagan qatlam tashkil qilargan.

Temperaturaga bog‘liq o‘lchashlarda asosan $U_{AFK}(T)$, $I_{q,t}(T)$ va $R(T)$ xarakteristikalar tekshirildi. Namunalar havosi 10^{-2} mm.sim.ust. gacha siyraklashtirilgan maxsus kamera (kriostat) larga joylashtirildi. Maxsus kamerada namunaga turli miqdordagi temperatura va yorug‘lik berish imkoniyati bor.

3–rasmda o‘lchash natijalari CdTe AFK-qatlamlari uchun keltirilgan. Rasmdagi $I_{q,t}(T)$ xarakteristikadan ko‘rinadiki CdTe qatlamlaridagi qisqa tutashuv toki temperaturaga qariyb bog‘liq emas ekan. Qatlamda hosil bo‘layotgan fotokuchlanish bilan qatlam qarshiligining temperaturaga bog‘lanishi bir – biriga juda o‘xshaydi.


Sb_2Se_3 AFK–qatlamlaridagi temperaturaviy bog‘lanishlar xarakteri kadmiy telluridagiga o‘xshab ketadi.

AFK–qatlamning lyuks–volt xarakteristikalarini tekshirish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ba’zi AFK–qatlamlarning lyuks–volt xarakteristikalari koordinata boshidan o‘tmaydi. Bu qatlamlarda 0,1–0,5 V dastlabki kuchlanish borligi ma’lum bo‘ldi. Qorong‘ida shu namunalarni kontaktlarini ochiq saqlab, bir yildan ortiq ushlanganda ham bu kuchlanish o‘zgarishsiz qolgan. Vakuumda bu qatlamlarni $100^{\circ}C$ gacha qizdirilganda ham bu kuchlanish yo‘qolmagan. Bu elektr kuchlanish qatlamni qiya holda o‘tqazish jarayonida qutblovchi maydonsiz vujudga keladi. Bu elektr kuchlanish ishorasi qatlamda vujudga kelayotgan U_{AFK} bilan mos kelishi ham, unga qarama-qarshi ham bo‘lishi mumkin. Ba’zi qatlamlarda $U_{AFK}=0$ bo‘lishiga qaramay U_{el} noldan farqli bo‘ladi.


Olingan fotoelektret qatlam o'lchov asbobiga ulandi. So'ng intensivligi taxminan $8 \cdot 10^{-2}$ Vt/sm² bo'lgan yorug'lik bilan bir necha minut davomida yoritilib turilishi natijasida 1 sm uzunlikda 500 V ga yaqin AFK hosil bo'ldi. Yoritishni to'xtatgandan so'ng bir necha sekund AFK – qatlam elektrodleri (uchlari) qisqa tutashtirilib turiladi va AFK ning tamoman yo'qolishiga erishiladi. Undan so'ng qatlam yana o'lchov asbobiga ulanadi. Asbob fotoelektret holatga to'g'ri keluvchi qoldiq kuchlanishni qayd qiladi. Fotoelektret holat kuchlanishi sekin-asta ortib, 2-3 minut vaqt oralig'ida to'yinish qiymatiga erishadi. Bunda o'lgangan fotoelektret kuchlanish 90-100V ga etgan. Bunday fotoelektretlardan optoelektronikada boshqariluvchi xotira elementlarida foydalanish mumkin. Shunday uch qatlamli fotoelektret yupqa parda–taglik katta qarshilikli yarimo'tkazgich kristalli ko'rinishida yig'ildi (4–rasm).

Dissertatsiyaning «Yarimo'tkazgich yupqa pardalar optoelektrik xususiyatlariga strukturaning ta'siri» deb nomlangan uchinchi bobida anomal fotokuchlanish hosil bo'lishini ta'minlovchi, yarimo'tkazgich yupqa pardalar strukturasi bir jinsli emasliklarning hosil bo'lishining texnologik va fizikaviy asoslari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek optoelektron juftliklar asosida ishlaydigan qurilmalarning samaradorligini ta'minlaydigan fizikaviy omillar keltirilgan. Optoelektrik parametrlarning temperaturaviy o'zgarishlari va spektral xarakteristikalarini tadqiqot natijalari yoritilib, ular asosida bir jinsli emaslikdan foydalanib fotoelektron qurilmalar yasash imkoniyatlari ochib berilgan.

Materiallarning bir jinsli emaslik darajasini bilish nafaqat AFK elementlarini ishlab chiqarishda, balki turli yarimo'tkazgich qurilmalarini ishlab chiqarishda, shuningdek, materiallarning o'zini xususiyatlarini o'rganishda ham juda muhimdir. Polikristall yupqa pardalarning xususiyatlari to'liq bir jinsli emaslik darajasi bilan aniqlanadi.



4-rasm. Uch qatlamli fotoelektret yupqa parda (1–yorug'lik oqimi, 2–kadmiy bilan boyitilgan kadmiy tellurid AFK-yupqa pardasi, 3–dielektrik qatlam, 4–katta qarshilikli yarimo'tkazgich kristalli).



5-rasm. Quyosh nurlanish energiyasining elektron-teshik juftlarini hosil qilish effektivligini yarimo'tkazgichning ta'qiqlangan zona kengligiga bog'liqligi.


Fotoelement unga tushayotgan yorug'likning bir qisminigina elektr energiyasiga aylantiradi. Chunki, yorug'likning yarimo'tkazgichdan qaytishi, undan o'tib ketishi va yutilgan lekin, elektron teshik jufti hosil qilmagan tashkil etuvchilari bilan bog'liq yorug'lik energiyasining yo'qotishlari mavjud. Bundan tashqari yarimo'tkazgichning

turi bilan bog‘liq energiya yo‘qotishlari ham bor. Bunda elektron-teshik juftini generatsiya qiluvchi yorug‘likning energiyasi va fotoelement foydali ish koeffitsiyentining yarimo‘tkazgich ta‘qiqlangan zonasi kengligi bilan bog‘liqligini hisobga olish kerak (5- rasm).

Optoelektron qurilmaning samaradorli yuqoridagilar bilan bir qatorda, elementar optron elementlari (yorug‘lik manbasi va uning iste‘molchisi) orasidagi optik foton vositasidagi bog‘lanishlardagi yorug‘lik signallarining kam yo‘qotishlar bilan buzilmay foto qabul qilgichga etib kelishi bilan bog‘liq. Mikroelektron tizimda bu muammoni ham tolali optika vositasida amalga oshirish mumkin.

Tekshirilgan materiallarga xos tipik temperaturaviy eksperimental bog‘lanishlar ko‘rsatadiki, AFK-elementlardagi ishlatilgan yupqa pardalarning anomal fotokuchlanishi va parda qarshiligi temperatura ortishi bilan dastlab sekin ($\sim 50^{\circ}\text{C}$ dan boshlab), temperaturaning keyingi o‘shishlarida keskin kamayadi. Temperaturaviy eksperiment natijalari ko‘rsatishicha AFK-elementlarda o‘ta yuqori (dielektriksimon) qarshilikning kuzatilishi ularga xos tipik xususiyat hisoblanib, AFK-effekt shu sababli faqat o‘ta yuqori qarshilikli ($R > 10^{10}\text{Om}$) namunalardagina kuzatildi.

Yarimo‘tkazgich bilan yorug‘likning ta‘siridagi monoxromatik selektivlikka asoslanib, har xil ta‘qiqlangan zonali yarimo‘tkazgichlardan iborat ko‘ndalang ko‘p qatlamli geteroo‘tishli elementlardan (GFE) iborat batareya yaratish mumkin. Ko‘p qatlamli GFE lar tizimini amalda ro‘yobga chiqarish (yasash) uchun namuna sifatida quyidagi yarimo‘tkazgichlar xalkogenid qatorini tanlash mumkin: ZnS, CdS, CdSe, CdTe yoki PbTe, PbSe, PbS. Qatlamlarning monoxromatik selektivlikka va qatlam yarimo‘tkazgich ta‘qiqlangan zona kengligiga mos joylashuvi 6-rasmda ifodalangan.



6-rasm. Ko‘p qatlamli GFElar batareyasi.

Optik nurlar sohasidagi ($5 \cdot 10^{-4} - 10^{-9}$ m, $6 \cdot 10^{11} - 3 \cdot 10^{17}$ Gts) yorug‘lik oqimi shaffof metall elektrod orqali (1) ta‘qiqlangan zonasi keng (2) yarimo‘tkazgich qatlamiga tushadi. Unga spektral mos keluvchi qisqa to‘lqinli nurlar (λ_1) yutilib, qolgan nisbatan uzunroq to‘lqinli ($\lambda_2, \lambda_3, \lambda_4 \dots$) nurlar navbatdagi qatlamga (3) o‘tadi. Shu tariqa yorug‘lik to‘lqinlarining monoxromatik seleksiyasi sodir bo‘ladi. Buning natijasida yorug‘lik oqimining spektridagi ($\sim I_0$) ko‘proq nurlarning fotoelektrik jarayonda


ishtiroki ta'minlanadi. Hozirgacha ko'p qatlamli fotoelementdagi qatlamlarning optimal sonini aniqlashning nazariy usuli ilmiy jihatdan asoslanmagan, lekin 3-4 qatlamli fotoelementlar modeli uchun kuchlanishning maksimal qiymatini ($E_m=U$) va qisqa tutashuv tokini ($I_{q.t.}$) hisoblab topilgan, ular mos ravishda $U_{e_m} = 2,25 \div 3V$; $I_{q.t.} = 40 - 45 \text{ mA/sm}^2$. Bunday fotoelement uchun F.I.K. 36,4 % ga etadi.

«Polikristall yupqa pardalarni optoelektron qurilmalar yaratishda qo'llanilishi» nomli yakuniy to'rtinchi bobda AFKli optronlarni optoelektronikaning ma'lum sohasida ishlatishga tavsiya qilinadigan asosiy kattaliklari, ya'ni tezkorligi, chiqish kuchlanishi kabilar, ko'p jihatdan yorug'lik diodiga va AFK-qatlam imkoniyatlariga bog'liqligi aniqlangan. Optoelektron sxemalarda keng qo'llanilayotgan yorug'lik diodlarining impulsli rejimda nurlanish quvvatini o'lchash natijalari, tayyor optronlarni tekshirish, sinash usullarini bayon qilingan.

Optoelektron qurilmalarning optronlariga quyosh radiatsiyasi spektral tarkibidagi nurlardan ultrabinafsha (300÷400 nm) qismi FQQ larga ionlashtiruvchi ta'sir ko'rsatib uning muhim parametrlarini o'zgartirib yuboradi. Bu holatni baholash uchun geliiopto qurilmalarda foydalaniladigan fotogenerator va AFK–FQQ larning yupqa parda namunalari ultra binafsha nurlar intensivligi yuqori bo'lgan muhitda (baland tog' sharoitda) tadqiq qilindi. Ultra binafsha nurlarining (UBN) ta'sirida CdTe yupqa pardalarida AFK – effekt kuzatilmadi. Ammo AFK pardalar oq yorug'lik bilan yoritilib, unga bir vaqtning o'zida UBN ta'sir etilgan holatda fotokuchlanishning keskin kamayishi kuzatildi. Bu o'zgarish UBN ning intensivligiga bog'liq holda vujudga keladi. AFK yupqa pardalarining qarshiligi ham fotokuchlanishga monand ravishda kamaygan.


Quyosh radiatsiyasining issiqlik ta'sirini baholash maqsadida foto qabul qilgichlarning yupqa pardali namunalari havoda har xil gazlar muhitida va vakuumda qizdirib tekshirildi. Tekshirilgan (CdTe, Sb₂Se₃, PbS, PbSe) hamma namunalarda qizdirish natijasida fotokuchlanishning keskin kamayishi kuzatilgan (30°C, 50°C da 3 soat qizdirilgan).

Optoelektron qurilmalarga quyosh radiatsiyasining ultrabinafsha va issiqlik ta'sirlarining salbiy oqibatlarini minimallashtirish maqsadida, maxsus optoelektron tizim taklif etilmoqda, u optoelektron geliotexnik qurilmalarining samaradorligini ta'minlaydi. Uning blok sxemasi 7 - rasmda keltirilgan.



7-rasm. Maxsus optoelektron tizim. QE – Quyosh elementi, YD – yorug'lik diodi, AFK – anomal kuchlanish hosil qiluvchi element, K – dielektrik yuklama.

Geliooptron sifatida taklif qilinayotgan qurilma katta elektrostatik maydonlarni quyosh yorug‘ligi energiyasini elektr energiyasiga aylantirish orqali amalga oshirishga mo‘ljallangan. Qurilma bir vaqtning o‘zida quyosh nurining yorug‘lik, issiqlik, magnit nurlanishlaridan elektr maydoni olish imkonini beradi. 8 - rasmda universal, masofaviy boshqariladigan geliooptronning blok-sxemasi keltirilgan. Blok-sxemaga optoelektron va elektron zanjirlari yordamida fotoelektr, fotomagnit va termoelektrik bloklar joylashtirilgan.



8-rasm. Geliooptronning blok-sxemasi. 1,2,3 – optoelektron zanjirlar, 4,5,6 – elektron zanjirlar, 7,8 – qayta aloqa elektr konturlari, TQN – Tabiiy quyosh nuri. QNQQ – Quyosh nurini qabul qilgich. EKT – elektron kommutatsiya tizimi, FEB – fotoelektr bloki, FMB – fotomagnitoelektrik blok, TEB – termoelektrik blok, YVB – geliooptronning yuqori voltli blok, ChIQ – chiqish ishchi qurilmasi.


Quyoshdan kelayotgan yorug‘lik oqimi (TQN) nurni qabul qilgich (QNQQ)ga tushadi. Fotoelektrik konsentrator yordamida yuqori konsentratsiyalangan quyosh nurlanishi hosil qilinadi. Konsentratsiyalangan yorug‘lik oqimi elektron kommutatsiya tizimiga (EKB) uzatiladi va geliooptronning ishlash rejimi aniqlanadi. Agar qurilma fotovoltaik rejimda ishlashi zarur bo‘lsa, yorug‘lik oqimi optik kanal orqali fotoelektrik blokga yo‘naltiriladi. Fotoelektrik blok yupqa pardali yassi parallel geterofotoelementlardan tuzilgan bo‘ladi. U erda foto EYuK hosil bo‘ladi.

Agar termoelektrik rejim tanlansa berilgan issiqlik oqimi (3-kanal orqali) natijasida TEBda termo EYuK hosil bo‘ladi. Termoelektrik blok yupqa pardali termoelementlardan tashkil topgan. Tushayotgan yorug‘lik oqimi zichligini ortishi bilan o‘zgartirgich bloklardan (FEB, FMB va TEB) chiqish kuchlanishi ortadi.

Geliooptronning 1;2;3 optoelektron zanjirlarida asosiy energiya tashuvchilari bo‘lib quyosh nuri fotonlari hisoblanadi. Geliooptronning elektr konturlari (4,5,6) da energiya tashuvchilari elektronlar hisoblanadi. Geliooptron qurilmasining ishlash rejimi va alohida qismlari ishlashining mosligini nazorat qilish uchun maxsus qayta aloqa (7,8) elektr konturlari xizmat qiladi. Zarur hollarda elektr qayta aloqa konturini optoelektron konturga almashtirish mumkin.

Elektro energetik blokda (FEB, FMB, TEB) hosil bo‘lgan EYuK elektr konturlari orqali geliooptronning yuqori voltli bloki (YVB) ga beriladi. Qurilmaning YVB qismi yupqa pardali elementar maxsus optronlardan tashkil topgan (8-rasm).


Mikro maxsus optotransformatorlarda SD va AFK yupqa parda uchun alohida tashqi energiya manbai talab qilinmaydi. SDga kuchlanish birlamchi foto qabul qilgich (quyosh elementi) hosil qilgan elektr energiyasi orqali beriladi (9-rasm).



9 - rasm. Yupqa pardali elementar mikro maxsus optronning variantlaridan biri. SD-svetodiod, AFK-generator tipidagi foto qabul qilgich.

Optotransformatorlar yordamida tabiiy tashqi ta'sirlar vositasida kuchli elektr maydoni olish, ularni MDYa-tranzistorlar bilan birga turli sohalarida ishlatish mumkin. Optotransformator vositasida ishlovchi optoelektron qurilmalarning barchasida maxsus tashqi elektr manbasiga ehtiyoj yo'q. Ular tabiiy tashqi ta'sirlardan foydalanib, mustaqil ishlay oladi. Samarador, energiya tejamkor optoelektron qurilma hisoblanadi.

Elektr manbasi generator tipidagi FQQ bo'lib, u nurlanish manbasini elektr kuchlanishi bilan ta'minlaydi. ELYa elektr ta'minotli foton generatoridir (10-rasm).



10-rasm. 1-tabiiy tashqi yorug'lik, 2-parallel nurlar dastasi hosil qiluvchi qurilma optik-sistema, 3-tabiiy yorug'likning parallel dastasidan uning issiqlik ta'sirini yo'qotish amalga oshiriladi, undan chiqqan nur generator tipidagi foto qabul qilgichga tushsa uni qizitmaydi. 4-issiqlik ta'siridan tozalangan nurni chiqish blokiga uzatuvchi shisha tolali optik nur uzatgich (ShTONU), 5-optotransformatorning yuqori kuchlanishli bloki.

Yoritgichdan (ELYa) chiqqan nurlanish ikkilamchi konturning generator tipidagi foto qabul qilgichiga eng kam yo'qotishlar bilan etib kelishi uchun maxsus shisha tolali nur uzatgich ishlatiladi. Shisha tolali nur uzatgichning yuqori samarador bo'lishini ta'minlash uchun, tayyorlashda ELYa va ikkilamchi konturdagi generator tipidagi FQQda ishlatilgan yarimo'tkazgich materialning nur sindirish ko'rsatgichlari bir-biriga yaqin qilib tanlanishi kerak. Bu maqsadda shisha tolali nur uzatgichlarda qo'rg'oshinli maxsus shishalardan ($n=1.8\div 1.9$) va selenli shishalardan ($n=2.4\div 2.6$) foydalanish mumkin.

Generator tipidagi foto qabul qilgich asosida yuqori aniqlikli bir moddaning boshqa modda tarkibidagi miqdorini aniqlash uchun qurilma va yarim shaffof suyuqliklarning rang analizatorini yaratildi.

XULOSALAR

1. Tabiiy tashqi ta'sirlar (masalan, quyosh yorug'ligi) va muqobil energiya manbalari vositasida elektr maydoni hosil qiluvchi va uni kuchaytirib yetarli darajada

katta elektr maydoniga aylantiruvchi elektron va foton bog‘lanishli murakkab gibrid optoelektron konturlar tizimini yaratishning ilmiy, texnikaviy asoslari ko‘rsatildi;

2. Generator tipidagi foto qabul qilgich polikristall yarimo‘tkazgich yupqa pardalari yuqori darajadagi qarshilik anizotropiyasiga, tarkib va tuzilishida klaster tipidagi segregatsiya xususiyatini namoyon qiladigan bir jinsli bo‘lmagan tizimlardan iborat ekanligi isbotlandi;

3. Foto qabul qilgich yupqa pardalaridagi mikro kristalchalar qatorining kristalchalararo chegara sohalarda (bu sohalar etarli ko‘p bo‘lib, taqriban 1sm uzunlikda 10^5 dona va unda ko‘p) yarimo‘tkazgich – dielektrik – yarimo‘tkazgich (YaDYa) yacheykalari mavjud bo‘lib, YaDYadagi dielektrik potentsial to‘siq (p – n – o‘tish kabi) ni hosil qilishi asosida AFK tabiati tushuntirildi;

4. AFK va AFMK hodisalar faqat bo‘ylama effekt bo‘lib, struktura qarshiligi o‘ta katta bo‘lgan ($> 10^9$ Om) namunalardagina kuzatilishi aniqlangan. Ularni yuqori kuchlanish manbasi sifatida dielektrik yuklamalarga moslashib ishlashi ko‘rsatildi.

5. Quyosh radiatsiyasining yorug‘lik, issiqlik va boshqa ta’sirlaridan birgalikda foydalanib ishlaydigan optoelektron gibrid, ko‘p kanalli, universal mikroelektron, geliooptron yaratishning ilmiy, fizikaviy asoslari aniqlandi.

6. Geliooptronning chiqish elektr signallarini buzmasdan kuchaytira oladigan, yuqori stabil optotransformator loyihasi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЮЛДАШЕВ АБРОР АБДУВАСИТОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ФОТОПРИЕМНИКА ГЕНЕРАТОРНОГО ТИПА ДЛЯ
ОПТИЧЕСКОЙ ОБЛАСТИ СПЕКТРА**

01.04.10 – Физика полупроводников

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2022.1.PhD/T2594

Диссертация выполнена в Ферганский государственный университет

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.namnni.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: [Найманбаев Рахмонали]
Кандидат физико-математических наук, доцент

Официальные оппоненты: Зайнабидинов Сирожиддин Зайнабидинович
академик АН РУз, доктор физико – математических наук, профессор

Колдашов Оббожон Хокимович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится « 21 » 09 2024 года в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.11.2022 FM/T.66.04 при Наманганском инженерно - технологическом институте по адресу: 160115, г Наманган, ул Касансайская 7, Административное здание Наманганского инженерно – технологического института, 3-здания, 2-этаж, малый зал совещаний, Тел./факс. (99869) 225-10-07; (99869) 225-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно – технологического института (зарегистрирована за № 307) по адресу: 160115, г Наманган, ул. Касансайская -7, Тел./факс: (99869) 225-10-07, (99869) 225-76-75.

Автореферат диссертации разослан « 9 » 09 2024 г.
(протокол рассылки № 15 от « 9 » 09 2024 г.)



У.Н. Эркабоев,

Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф-м.н., профессор

А. А. Абдукаримов,

ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Н. Ю. Шарибаяв,

Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.ф-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии(PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире особое внимание уделяется созданию техники и технологий, работающих на основе альтернативных источников энергии и создающих энергосберегающее электростатическое поле. В настоящее время в развитых странах одним из основных направлений является получение высокоэффективных преобразователей энергии на основе полупроводниковых материалов и создание устройств на их основе. Создание электростатического поля с использованием светового и теплового воздействия солнечного излучения оптоэлектронным методом и использование его в народном хозяйстве для создания экологически чистых и малозатратных технологий. В связи с этим, в том числе повышение эффективности полупроводниковых фотоэлектрических преобразователей энергии, обеспечение эффективного поглощения светового потока, падающего на поверхность фотопреобразователя, уменьшение поверхностной и объемной рекомбинации фотогенерированных носителей заряда, получение перспективных новых фотоэлектрических структур для высокоэффективной энергетики. устройствах особое внимание уделяется изучению их электрофизических свойств и исследованию уникальных возможностей использования фотоэлектрических источников энергии.

Ученые ведущих научно-исследовательских центров мира проводят научные исследования по созданию высокоэффективных, компактных энергопреобразующих устройств и устройств из полупроводниковых моно- и поликристаллов. В этом направлении, хотя современная микроэлектроника в основном ограничивается элементами на основе кремниевых полупроводниковых материалов, исследования по их широкому использованию в микрофотоэлектронике считаются приоритетными. При этом использование подходящего полупроводникового материала для каждой части спектрального поля, в некоторых случаях применяется несколько в зависимости от области применения, то есть технических требований и условий эксплуатации фотоприемника. В связи с этим актуальной задачей считается проведение целевых исследований, в частности проведение исследований в области физики тонких пленок, тонкопленочной микроэлектроники, создания оптоэлектронных устройств и других направлений.

В нашей республике широко проводятся научные исследования, направленные на создание перспективных направлений, в частности энергосберегающих фотоэлементов, фотогенераторов, термогенераторов, оптоэлектронных устройств, работающих на основе альтернативных источников энергии. В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2022-2026 годы определены задачи “по стимулированию научных исследований и инновационной деятельности, внедрению в производство энергосберегающих технологий, расширению

